



Cognitive-psycholinguistic characteristics of dialogic and monologic communication

Guzal BOBOMURODOVA¹

Bukhara State Medical Institute named after Abu Ali ibn Sina

ARTICLE INFO

Article history:

Received August 2025

Received in revised form

15 September 2025

Accepted 25 September 2025

Available online

15 October 2025

Keywords:

dialogue,
monologue,
psycholinguistics,
communication,
interactivity,
cognitive processes,
semantics,
pragmatics,
speech planning,
speech culture,
logopedic practice.

ABSTRACT

This article explores psycholinguistic distinctions between dialogic and monologic forms of speech. The study focuses on mechanisms of speech perception and production as they depend on communicative context, and on the semantic and pragmatic processes that underlie verbal interaction. Dialogue is characterized by natural interactivity, dynamism, and the co-construction of meaning between participants, while monologue exhibits logical consistency, structural organization, and a high degree of preplanning. In dialogue, cognitive processes are supported by partner feedback, facial expression, and intonation; in monologue, the speaker independently controls the flow of thought, which imposes a greater cognitive load. The article interprets these differences through the interaction of language, thought, and communication psychology. The findings have theoretical and practical significance for cultivating speech culture, improving foreign-language pedagogy, and enhancing logopedic and corrective-speech practices.

2181-3663/© 2025 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-3701-vol3-iss8/S-pp350-356>

This is an open-access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Dialogik va monologik muloqotning kognitiv-psixolingvistik xususiyatlari

ANNOTATSIYA

Kalit so'zlar:

dialog,
monolog,
psixolingvistika,
kommunikativ muloqot,
interfaollik,

Ushbu maqolada dialog va monolog nutq shakllarining psixolingvistik farqlari tizimli ravishda tahlil qilinadi. Tadqiqotda inson ongida nutqni ishlab chiqish va qabul qilish jarayonlari, ularning kommunikativ sharoitga bog'liqligi hamda semantik va pragmatik xususiyatlari o'rganilgan. Dialog shaklida

¹ Lecturer, Bukhara State Medical Institute named after Abu Ali ibn Sina.

kognitiv jarayon,
semantik va pragmatik
xususiyatlar,
nutq rejalashtirish,
tafakkur,
nutq madaniyati,
logopedik amaliyot.

nutq tabiiy, interaktiv va tezkor fikr almashuv orqali shakllanib, sheriklarning o'zaro ta'siri natijasida ma'no birgalikda yaratiladi. Monolog esa, aksincha, oldindan rejalashtirilgan, mantiqan izchil va to'liq strukturalashgan nutq shaklidir. Unda so'zlovchi fikr oqimini mustaqil nazorat qiladi, shuning uchun kognitiv yuklama yuqoriroq bo'ladi. Dialogda esa, fikr jarayoni sherikning javobi, intonatsiya va mimika orqali boshqariladi. Maqolada ushbu ikki nutq turi o'rtasidagi farqlar til, tafakkur va muloqot psixologiyasining o'zaro ta'siri nuqtayi nazaridan yoritilgan. Tadqiqot natijalari ta'lim jarayonida nutq madaniyatini rivojlantirish, chet tillarni o'qitishda interaktiv yondashuvni kuchaytirish hamda logopedik amaliyotlarda nutqni korreksiya qilish usullarini takomillashtirish uchun nazariy va amaliy ahamiyatga ega.

Когнитивно-психолингвистические особенности диалогического и монологического общения

Ключевые слова:

диалог,
монолог,
психолингвистика,
коммуникация,
интерактивность,
когнитивные процессы,
семантика,
прагматика,
планирование речи,
речевая культура,
логопедическая практика.

АННОТАЦИЯ

В статье раскрываются психолингвистические различия между диалогической и монологической формами речи. Исследование направлено на выявление особенностей восприятия и порождения речи в зависимости от коммуникативной ситуации, а также на анализ семантических и прагматических механизмов речевого взаимодействия. Диалог характеризуется естественной интерактивностью, динамичностью и совместным созданием смысла участниками общения, тогда как монолог отличается логической последовательностью, структурированной организацией и высокой степенью предварительного планирования. В диалоге мыслительный процесс поддерживается реакцией собеседника, мимикой и интонацией, тогда как в монологе речевая деятельность контролируется говорящим самостоятельно, что повышает когнитивную нагрузку. Работа рассматривает данные различия с точки зрения соотношения языка, мышления и психологии коммуникации. Результаты исследования имеют теоретическое и практическое значение для совершенствования речевой культуры, повышения эффективности обучения иностранным языкам и коррекционно-логопедической практики.

KIRISH

Til va tafakkur o'zaro chambarchas bog'liq bo'lgan murakkab psixolingvistik tizimdir. Insonning nutq faoliyati, ayniqsa, dialogik va monologik muloqot shakllarida, nafaqat lingvistik qonuniyatlar, balki kognitiv (bilish) jarayonlar – idrok, xotira, e'tibor va tafakkur mexanizmlarining o'zaro ta'siri orqali shakllanadi. Shu bois, muloqotning ushbu ikki shakli – dialog va monolog – nafaqat grammatik yoki stilistik, balki psixolingvistik nuqtayi nazardan ham chuqur tahlil etilishi zarur.

Dialogik muloqot inson tafakkurining interaktiv xususiyatini namoyon etadi: u real vaqt rejimida fikr almashuv, o'zaro ta'sir, tezkor javob va emotsional reaksiya orqali kechadi. Shu jihatdan, dialog tafakkurning ijtimoiy xarakterini, nutq hosil qilish va uni idrok etishdagi o'zaro bog'liqlikni ochib beradi. Monolog esa, aksincha, nutqning ichki, refleksiv va rejalashtirilgan shakli bo'lib, unda fikr izchilligi, semantik yaxlitlik va sintaktik strukturaviylik ustunlik qiladi. Shuning uchun monologik nutq shaxsning individual tafakkur modeli, nutqni tashkil etish va nazorat qilish qobiliyatini ifodalaydi.

Zamonaviy psixolingvistika nuqtayi nazaridan, dialogik va monologik nutq farqlari nafaqat til tizimidagi shakllar bilan, balki kognitiv jarayonlarning boshqaruv mexanizmlari – diqqatning taqsimlanishi, xotira hajmi, semantik maydonlarning faollashuvi va verbal rejalashtirish bilan ham izohlanadi. Ayniqsa, so'zlovchi va tinglovchi o'rtasidagi o'zaro moslashuv, nutqni tezkor qayta ishlash va ijtimoiy kontekstni anglash jarayonlari dialog uchun muhim kognitiv omillardir.

Mazkur maqolada dialogik va monologik muloqotning psixolingvistik va kognitiv xususiyatlari tizimli yondashuv asosida tahlil qilinadi. Tadqiqotda shaxsning nutqiy faoliyatini tashkil etuvchi bilish jarayonlari, semantik va pragmatik tuzilma, prosodik vositalar hamda kommunikativ strategiyalar ilmiy asosda yoritiladi. Ushbu yondashuv nutq faoliyatining ikki shakli – o'zaro ta'sirli (dialogik) va yakka (monologik) muloqot – inson tafakkuri va til o'rtasidagi murakkab psixolingvistik bog'liqlikni chuqurroq tushunishga xizmat qiladi.

Shuningdek, ushbu mavzuning dolzarbligi zamonaviy ta'lim jarayonida, ayniqsa, chet tillarni o'qitish, nutq madaniyatini rivojlantirish va kommunikativ kompetensiyani shakllantirishda, dialogik va monologik nutqning o'ziga xos kognitiv-psixolingvistik mexanizmlarini bilish zarurligi bilan belgilanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Nutq faoliyati inson tafakkurining eng muhim ko'rinishlaridan biri bo'lib, uning psixolingvistik tabiati til, tafakkur va ong o'rtasidagi o'zaro munosabatlar orqali namoyon bo'ladi. K. Byuhler, L. Vygotskiy, A. Leontyev, N. Chomsky, J. Bruner, D. Slobin, A.A. Leontyev, T. van Deyk, E. Goffman kabi olimlar nutqning psixologik va lingvistik tomonlarini o'rganishda asosiy nazariy yo'nalishlarni shakllantirganlar. Ularning tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, nutqning dialogik va monologik shakllari inson ongidagi bilish jarayonlarining turlicha tashkil topgan modelini ifodalaydi.

Vygotskiy [1] o'zining "Myshlenie i rech" asarida nutqni inson tafakkurining tashqi ifodasi sifatida talqin etar ekan, dialogik muloqotda fikrlar almashuvi orqali yangi ma'nolar hosil bo'lishini, monolog esa ichki tafakkurning tashqi nutqqa aylanish jarayoni ekanligini ta'kidlaydi. A.A. Leontyev [2] esa, nutq faoliyatini faoliyat nazariyasi asosida tahlil qilib, dialogni ijtimoiy muloqotning faol shakli, monologni esa shaxsiy fikrlashning ifodaviy bosqichi deb ko'rsatgan.

Psixolingvistik yondashuv nuqtayi nazaridan, monologik nutqda rejalashtirish, semantik tuzilma va sintaktik izchillik ustun bo'lsa [6], dialogik nutqda esa tezkor qayta aloqa, kontekstual moslashuv va semantik hamfikrlik jarayonlari muhim o'rin tutadi [7]. Shu bois, dialog ko'proq "ijtimoiy tafakkur"ga, monolog esa "individual tafakkur"ga asoslanadi.

Zamonaviy tadqiqotchilar [8-10] dialogni interaktiv semantik tuzilma sifatida talqin etadilar. Ularning fikricha, dialogik muloqotda til vositalarining pragmatik qiymati kontekstdan, sheriklar o'rtasidagi bilish darajasidan va emotsional aloqadan bevosita ta'sirlanadi. Monologik nutqda esa til tizimining ichki izchilligi, metaforik ifoda va kognitiv soddalashtirish mexanizmlari kuchliroq namoyon bo'ladi.

Rus psixolingvistik maktablarida [2, 13-14] dialog va monologning psixolingvistik farqlari kognitiv tahlil asosida ko'rib chiqilgan. Ularning ta'kidlashicha, dialogik nutqda fikrlarni boshqarish tashqi stimullar orqali amalga oshadi, monologik nutqda esa bu jarayon ichki nazorat tizimi orqali kechadi.

Shuningdek, zamonaviy kommunikativ-lingvistik tadqiqotlar [12, 15] dialogik muloqotni insonlar o'rtasidagi **o'zaro** tushunish modeli sifatida talqin etadi. Bunda til – nafaqat axborot uzatish vositasi, balki ijtimoiy kelishuv va bilish almashinuvi mexanizmi sifatida namoyon bo'ladi [18-19].

Yevropa psixolingvistikasida [11] nutq shakllarining farqlanishi usage-based yondashuv orqali tahlil qilinadi. Bu yondashuvga ko'ra, dialog nutqni egallash va til tizimini o'zlashtirishda tabiiy ijtimoiy vosita bo'lsa, monolog – bilimni tizimlashtirish va refleksiv fikrlash mexanizmini shakllantiruvchi jarayondir.

Xulosa qilib aytganda, mavjud ilmiy manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki, dialogik va monologik muloqotning psixolingvistik tafovutlari tilning ijtimoiy hamda individual funksiyalarini, inson tafakkurining tashqi va ichki mexanizmlarini chuqur yoritadi. Ularning kognitiv xususiyatlarini o'rganish bugungi kunda til ta'limi, nutq terapiyasi, kommunikativ kompetensiyani shakllantirish va sun'iy intellekt sohasida (AI dialog tizimlari) muhim ahamiyat kasb etmoqda.

METOD VA METODOLOGIYA

Ushbu tadqiqot dialogik va monologik muloqotning kognitiv-psixolingvistik xususiyatlarini ilmiy asosda tahlil qilishga qaratilgan bo'lib, u kognitiv psixologiya, nutq nazariyasi, lingvistika va kommunikativ pedagogika kesishmasida olib borildi. Tadqiqotda inson tafakkurining lingvistik ifodasi, nutqni rejalashtirish jarayoni, semantik va pragmatik komponentlarning shakllanish mexanizmlari ilmiy tahlil markazida bo'ldi.

Tadqiqotning asosiy maqsadi – dialogik va monologik muloqot jarayonida kechadigan psixolingvistik va kognitiv mexanizmlarni aniqlash, ularning nutq ishlab chiqish, idrok etish va fikrni ifodalashdagi o'rnini tahlil qilishdir.

Maqsadga erishish uchun quyidagi ilmiy vazifalar belgilandi:

1. Dialogik va monologik nutqning nazariy asoslarini psixolingvistik yondashuv nuqtayi nazaridan yoritish.

2. Muloqot shakllarida tafakkur, idrok va xotira jarayonlarining o'zaro ta'sirini tahlil qilish.

3. Dialog va monologda semantik, sintaktik va pragmatik strukturalarning shakllanishini solishtirish.

4. Nutq ishlab chiqish va uni qabul qilishda kognitiv yuklama va prosodik moslashuvni aniqlash.

5. Natijalar asosida ta'limda dialogik va monologik kompetensiyani rivojlantirish bo'yicha metodik tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqot predmeti va ob'ekti:

- Tadqiqot ob'ekti: inson nutq faoliyati va muloqot jarayonlari.
- Tadqiqot predmeti: dialogik va monologik muloqot shakllarining kognitiv-psixolingvistik xususiyatlari, ularning nutqni ishlab chiqish va idrok etish mexanizmlaridagi farqlari.

Tadqiqot quyidagi ilmiy metodlar asosida amalga oshirildi:

- Psixolingvistik tahlil metodi – nutqning psixologik va til tizimi komponentlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni aniqlash uchun;

- Kognitiv tahlil metodi – idrok, xotira, tafakkur va e'tiborning nutq hosil qilishdagi rolini o'rganish uchun;

- Diskurs tahlili – dialogik va monologik matnlarning semantik-pragmatik tuzilmasini tahlil qilish uchun;

- Eksperimental metodlar (nutqni qayd etish va tahlil qilish) – tinglovchilar va so'zlovchilarning reaksiyalarini aniqlash uchun;

- Qiyosiy tahlil – dialogik va monologik muloqot shakllarini tizimli solishtirish uchun.

Tadqiqotning nazariy poydevori L.S. Vygotskiy, A.A. Leontyev, N.I. Zhinkin, J. Bruner, H. Clark, T. van Deyk, D. Slobin va D. Hymes kabi olimlarning psixolingvistika, kognitiv tilshunoslik hamda kommunikativ nazariya haqidagi asarlariga tayangan. Ularning konsepsiyalari nutq faoliyatining ijtimoiy, psixologik va semantik integratsiyasini tushuntirishda asosiy nazariy manba bo'lib xizmat qildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi

- Dialogik va monologik muloqot o'rtasidagi farqlar kognitiv yuklama, prosodik moslashuv va semantik birikish asosida tahlil qilindi.

- Har ikki nutq shaklining idrok mexanizmlari va tafakkur modeli eksperimental kuzatishlar asosida o'rganildi.

- O'zbek tilida dialog va monologning psixolingvistik tahliliga oid yangi kognitiv model taklif qilindi.

Tadqiqot natijalari:

- chet tillarini o'qitishda dialogik va monologik kompetensiyani rivojlantirish,
- nutq terapiyasi va logopedik mashg'ulotlarda psixolingvistik yondashuvni joriy etish,
- tilshunoslik va pedagogika sohasida kognitiv yondashuv asosida dars metodikasini takomillashtirishda qo'llanilishi mumkin.

TADQIQOT NATIJALARI VA MUHOKAMA. Tadqiqot davomida dialogik va monologik muloqot shakllarining psixolingvistik farqlari eksperimental tahlil, kuzatuv va nutqiy faoliyat namunalarini tahlil qilish asosida o'rganildi. Tahlillar shuni ko'rsatdiki, bu ikki muloqot shakli o'ziga xos kognitiv jarayonlar, semantik struktura, prosodik tizim va kommunikativ strategiyalar bilan farqlanadi.

Kuzatuv natijalariga ko'ra, dialogik muloqotda tafakkur jarayoni interaktiv tusga ega bo'lib, sheriklarning nutqiy reaksiyasi, intonatsion o'zgarish va mimik signal orqali tezkor javob shakllanadi. Bu holatda ishchi xotira yuklamasi pastroq, chunki muloqot real vaqt rejimida fikr almashuv asosida kechadi. Monologik muloqotda esa, fikrni oldindan rejalashtirish, semantik izchillikni ta'minlash va nutqni nazorat qilish jarayonlari yuqori darajada faol bo'ladi. Shu sababli kognitiv yuklama ortadi, diqqat va xotira faoliyati markaziy o'rinda turadi.

Dialogik nutqda semantik birliklar sheriklar o'rtasidagi kontekstga tayangan holda hosil bo'ladi. Unda deyksis, ellipsa va afektiv birliklar (masalan, "ha", "to'g'ri", "ana endi") ko'p qo'llanadi, bu esa ma'noning birgalikda qurilishiga imkon beradi. Monologik nutqda esa metaforik va kogerent struktura kuchli bo'lib, mavzu birligi va semantik izchillik ustunlik qiladi. Tinglovchiga yo'naltirilgan nutq strukturasi aniq, grammatik jihatdan to'liq va mantiqan tizimlashtirilgan bo'ladi.

Nutqning prosodik tahlili shuni ko'rsatdiki, dialogik muloqotda intonatsion moslashuv (alignment) faol kuzatiladi. So'zlovchilar bir-birining ritmiga, tempiga va intonatsion ohangiga moslashadi. Monologik nutqda esa prosodiya strukturani bo'lish, mavzuni ajratish va tinglovchi e'tiborini boshqarish funksiyalarini bajaradi.

Dialogik muloqotda so'zlovchilar o'zaro muloqotni davom ettirish uchun kooperativ strategiyalar (tasdiqlov, takrorlash, tushuntirish)dan foydalanadilar. Monologik shaklda esa retorik strategiyalar (izoh, tahlil, umumlashtirish) ustunlik qiladi. Eksperimental tahlilda 60 ishtirokchi (30 ta talabadan iborat guruh va 30 ta o'qituvchi)ning muloqot namunalarida ushbu farqlar aniqlangan: dialogik nutqda interaktiv signal chastotasi 1 daqiqada o'rtacha 9–12 marta, monologik nutqda esa 3–5 marta kuzatilgan.

Tinglovchi reaksiyalarini tahlil qilish shuni ko'rsatdiki, dialogik muloqotda reaksiya vaqti 0,8–1,2 soniya atrofida bo'lgan, bu esa real vaqtli tafakkurning faolligini ko'rsatadi. Monologik nutqda esa reaksiya 3–5 soniyagacha kechikadi, bu esa fikrni qayta ishlash va tushunish jarayonining chuqurligini bildiradi.

Olingan natijalar xalqaro psixolingvistika nazariyalariga mos keladi. Ularning fikriga ko'ra, dialog inson tafakkurining ijtimoiy shakli sifatida real vaqt kognitiv moslashuvni ta'minlaydi, monolog esa individual tafakkurning verbal ifodasi bo'lib, mantiqiy strukturalanish orqali nutqning to'liqligini saqlaydi. Natijalar shuningdek o'zbek tilida ham bu ikki shaklning o'ziga xos muloqot **psixodinamikasi** mavjudligini tasdiqlaydi. Dialogik nutq madaniy jihatdan soddaroq, lekin hissiy jihatdan faol; monolog esa tafakkuriy aniqlik va semantik chuqurlik bilan ajralib turadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, dialogik va monologik muloqot shakllari inson tafakkuri va nutq faoliyatining turli psixolingvistik mexanizmlarini aks ettiradi. Ularning har biri o'ziga xos kognitiv yuklama, semantik tashkil, prosodik tizim va kommunikativ strategiyalar bilan ajralib turadi.

1. Dialogik muloqot – bu inson tafakkurining interaktiv shakli bo'lib, u real vaqt rejimida fikr almashish, o'zaro ta'sir va hissiy muloqot orqali shakllanadi. Unda fikrning yaratilishi sheriklar o'rtasidagi hamfikrlik va tezkor javobga asoslanadi. Dialogda tafakkur ijtimoiy tusda kechadi, shuning uchun unda prosodik moslashuv, semantik qisqartirish va pragmatik signal tizimi muhim rol o'ynaydi.

2. Monologik muloqot esa, shaxsning individual fikr yuritish jarayonini aks ettiradi. U rejalashtirilgan, semantik jihatdan izchil va grammatik jihatdan mukammal bo'ladi. Monologda kognitiv nazorat, xotira faoliyati va semantik izchillikni ta'minlash ustuvorlik qiladi. Bu shakl shaxsning tafakkur mustaqilligini, nutqni boshqarish va strukturalash qobiliyatini ko'rsatadi.

3. Psixolingvistik nuqtayi nazardan, dialogik nutqda ishchi xotira yuklamasi past, ammo rejalashtirish tezkor, monologik nutqda esa xotira yuklamasi yuqori, lekin fikr oqimi izchil bo'ladi.

4. Tadqiqotdan olingan natijalar nutq o'rganish, chet tillarni o'qitish, logopedik amaliyot va kommunikativ treninglarda dialogik va monologik kompetensiyani rivojlantirish uchun samarali asos yaratadi.

TAKLIFLAR

1. Ta'lim tizimida chet tili, psixologiya va pedagogika fanlarida dialogik muloqot asosida mashg'ulotlarni ko'paytirish, talabalarni interfaol fikr almashuvga jalb etish.

2. Nutq madaniyatini rivojlantirish bo'yicha darslarda monologik ifoda mashqlarini (taqdimot, tahlil, hikoya) sistematik tarzda o'qitish.

3. Psixolingvistik yondashuvni nutq terapiyasi, logopediya va til o'rganish metodikalariga tatbiq etish, ayniqsa, nutqni rejalashtirish va idrokni boshqarish mashqlarini kiritish.

4. Tilshunoslik tadqiqotlarida dialogik va monologik muloqotning kognitiv modellari asosida yangi tahliliy dasturlar (AI asosidagi nutq tahlil tizimlari) ishlab chiqish.

5. O'qituvchilar tayyorlov dasturlarida muloqot psixologiyasi va psixolingvistika fanlarini integratsiya qilish orqali, kelajak pedagoglarda nutqni boshqarish kompetensiyasini kuchaytirish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Выготский, Л. С. *Мышление и речь*. – М.: Педагогика, 1982. – 350 с.
2. Леонтьев, А. А. *Психолингвистические единицы и порождение речевого высказывания*. – М.: Наука, 1969. – 276 с.
3. Жинкин, Н. И. *Речь как проводник информации*. – М.: Наука, 1982. – 155 с.
4. Чомски, Н. *Аспекты теории синтаксиса*. – М.: Прогресс, 1972. – 345 с.
5. Bruner, J. *Acts of Meaning*. – Cambridge, MA: Harvard University Press, 1990. – 207 p.
6. Levelt, W. J. M. *Speaking: From Intention to Articulation*. – Cambridge, MA: MIT Press, 1989. – 584 p.
7. Clark, H. H., Brennan, S. E. *Grounding in Communication. // Perspectives on Socially Shared Cognition*. – Washington, DC: APA, 1991. – P. 127–149.
8. Tannen, D. *Talking Voices: Repetition, Dialogue, and Imagery in Conversational Discourse*. – 2nd ed. – Cambridge: Cambridge University Press, 2007. – 312 p.
9. Linell, P. *Rethinking Language, Mind, and World Dialogically: Interactional and Contextual Theories of Human Sense-Making*. – Charlotte, NC: Information Age Publishing, 2019. – 448 p.
10. Norrick, N. R. *Conversational Narrative: Storytelling in Everyday Talk*. – Amsterdam: John Benjamins, 2012. – 280 p.
11. Bybee, J., Croft, W., Tomasello, M. *Usage-Based Approaches to Language Structure and Processing*. – Oxford: Oxford University Press, 2005. – 390 p.
12. Хабермас, Ю. *Теория коммуникативного действия*. – Т. 1–2. – М.: Весь Мир, 2000. – 560 с.
13. Дридзе, Т. М. *Язык и социальная психология*. – М.: Наука, 1984. – 290 с.
14. Залевская, А. А. *Введение в психолингвистику*. – М.: Российский государственный гуманитарный университет, 1999. – 276 с.
15. Watzlawick, P., Bavelas, J. B., Jackson, D. D. *Pragmatics of Human Communication*. – New York: Norton, 2008. – 280 p.
16. Hymes, D. *Foundations in Sociolinguistics: An Ethnographic Approach*. – Philadelphia: University of Pennsylvania Press, 1974. – 230 p.
17. Тухватуллина, Г. Р. *Диалог и монолог в коммуникативной культуре речи. // Вестник Казанского университета*. – 2017. – №4. – С. 112–118.
18. Хусанов, Ш. Р. *Nutq faoliyatining psixolingvistik asoslari*. – Toshkent: Fan, 2018. – 216 б.
19. Ахмедова, Д. *Chet tili o'qitish jarayonida dialogik muloqot kompetensiyasini rivojlantirish. // Til va adabiyot ta'limi jurnali*. – 2020. – №3. – В. 65–70.